

IMAGE OF SHEIKH SAN'AN AND ITS FORMATION IN FICTION

Ibrahim Sattorovich JOVLIYEV

Doctoral student (PhD)

Alisher Navo'i

Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Tashkent, Uzbekistan

SHAYX SAN'ON OBRAZI VA UNING BADIY ADABIYOTDA

SHAKLLANISHI XUSUSIDA

Ibrahim Sattorovich JOVLIYEV

Doktorant (PhD)

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ОБРАЗ ШЕЙХА САНЪОНА И ЕГО ФОРМИРОВАНИЕ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Ибрагим Сатторович ЖОВЛИЕВ

Докторант (PhD)

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы

имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан ibrahim.199218@mail.ru

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Jovliyev I.S. Shayx San'on obrazi va uning badiiy adabiyotda shakllanishi xususida // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 6. — B. 332 – 344.

<https://doi.org/10.36078/1767732981>

Received: October 31, 2025

Accepted: December 17, 2025

Published: December 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. This article examines the history of the formation of the image of Sheikh San'an and its entry into fiction. First, special attention is paid to who Sheikh San'an was as a person. In this process, the extent to which historical figures such as the lover Sheikh San'an, the scholar Sheikh San'an, and Ibn Sakka, who are found in various sources and considered one person when analyzed, are related to each other is examined. In conclusion, an attempt is made to show the real figure of the real Sheikh San'an. In particular, it is stated that Sheikh San'an's real name is Abdurrazzaq, that San'ani is considered his relative, and that the similarity in name and relative does not mean that the two people are one. In addition, the reasons why the images of Sheikh San'an and Ibn Sakka have been interpreted as one person to this day are given. As a next issue, the path of this character's entry into fiction is revealed. It is also noted that Sheikh San'an, who is considered to have existed as a figure in the early days of Islam, was involved in the issue of wine. It is said that he appears in various folk legends and is also mentioned in Imam Ghazali's "Tuhfat ul-muluk", but this source has not yet been found. As a result, it is revealed that Sheikh San'an gained fame as a literary hero in the epic "Mantiq ut-tair", and later, every reader came to recognize this figure well through Fariduddin Attar.

Keywords: Sheikh San'an; image; mysticism; scholar; lover; "Tuhfat ul-muluk"; "Mantiq ut-tayr"; legend; Imam Ghazali; Fariduddin Attar.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shayx San'on obrazining shakllanishi va badiiy adabiyotga kirib kelish tarixi o'rganilgan. Dastlab Shayx San'onning tarixiy shaxs sifatidagi qiyofasiga e'tibor qaratilgan. Ushbu jarayonda oshiq Shayx San'on, ulamo Shayx San'on hamda turli manbalarda Ibn Saqqo nomi bilan uchraydigan hamda adabiy tahlillarda bir inson deb baholangan tarixiy shaxslarning bir-biri bilan qanchalik aloqasi bor ekanligi tahlil etilgan. Xulosa sifatida esa asl Shayx San'onning hayotdagi qiyofasi haqidagi mulohazalar bayon qilingan. Xususan, Shayx San'onning asl ismi Abdurrazzoq ekani, San'oniy uning nisbasi sanalishi va ism-nisbadagi o'xshashlik ikki insonning bitta bo'lib chiqmasligi dalillarga asoslanib izohlangan. Qolaversa, shu kungacha Shayx San'on va Ibn Saqqo obrazlarining nima uchun bir inson sifatida talqin etilganining sabablari ko'rsatilgan. Keyingi masala sifatida esa bu qahramonning badiiy adabiyotga kirib kelish yo'li ochib beriladi. Hamda Islomiyatning dastlabki davrlarida obraz sifatida mavjud deb hisoblangan Shayx San'onning ilk davrlarda sharob masalasi bilan qanchalik bog'liq ekanligiga e'tibor qaratiladi. U turli xil xalq afsonalarida yashash bilan birga Imom G'azzoliyning "Tuhfat ul-muluk" asarida ham keltirilgani haqida, ammo hozircha ushbu manba topilmagani aytib o'tiladi. Natijada esa Shayx San'on adabiy qahramon sifatida o'z shuhratini "Mantiq ut-tayr" dostonida boshlab bergani, keyinchalik har bir o'quvchi bu obrazni Farididdin Attor vositasida yaxshi taniy boshlagani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Shayx San'on; obraz; tasavvuf; ulamo; oshiq; "Tuhfat ul-muluk"; "Mantiq ut-tayr"; afsona; Imom G'azzoliy; Fariduddin Attor.

Аннотация. В статье исследуется процесс формирования образа шейха Сан'она и история его вхождения в художественную литературу. Вначале внимание сосредоточено на образе шейха Сан'она как исторической личности. В рамках данного анализа рассматривается степень взаимосвязанности между влюблённым шейхом Сан'оном, учёным-богословом шейхом Сан'оном, а также исторической фигурой, встречающейся в различных источниках под именем Ибн Сакко и в литературоведческих исследованиях нередко оцениваемой как одно и то же лицо. В качестве вывода излагаются соображения относительно подлинного облика шейха Сан'она в реальной жизни. В частности, на основе аргументированных доказательств поясняется, что настоящим именем шейха Сан'она было Абдурраззак, «Сан'они» являлось его нисбой, а сходство имени и нисбы не даёт оснований считать двух разных людей одним и тем же лицом. Кроме того, указываются причины, по которым вплоть до настоящего времени образы шейха Сан'она и Ибн Сакко интерпретировались как образ одного человека. Следующим аспектом исследования раскрывается путь вхождения этого персонажа в художественную литературу. Особое внимание уделяется вопросу о том, в какой степени образ шейха Сан'она, считающегося существовавшим уже в ранние периоды исламской истории, на начальном этапе был связан с темой вина. Отмечается, что этот образ, сохранившись в различных народных легендах, упоминается также в произведении Имама Газали «Тухфат уль-мулук», однако на сегодняшний день данный источник не был обнаружен. В итоге подчёркивается, что как литературный герой шейх Сан'он начал свою известность в поэме «Мантык ут-тайр», а впоследствии именно благодаря Фариддину Аттору этот образ стал широко

узнаваемым каждым читателем и понятным ему.

Ключевые слова: Шейх Санан; образ; мистицизм; учёный; возлюбленный; “Тухфат уль-мулук”; “Мантик ут-тайр”; любовь; Санан; Сана; легенда; Имам Газали; Фаридуддин Аттар.

Kirish

Musulmon xalqlari adabiyoti tubida dur-u javohirlar to‘la ummonga o‘xshaydi. Unda minglab fikr va tushunchalar turfa shakllarda ifoda etiladi. Bu ifoda yo‘sini bora-bora katta an‘ana maktabiga aylandi. Ushbu maktabni haqli ravishda irfoniy adabiyot deb atar ekanmiz, uning muhtasham olamini tadqiq etish uchun, shubhasiz, tasavvufiy istiloh, ramz, motiv va obrazlarning har birini – ular anglatib turgan keng ko‘lamdagi mazmunni to‘g‘ri idrok etish muhim. Ana shunda Sharq xalqlarining shuuri, hayot haqidagi qarashlarini anglash imkoni tug‘iladi. Zotan, Y. E. Bertels haqli ravishda aytgani kabi “Tasavvuf adabiyotini o‘rganmasdan turib, o‘rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin emas. Bu adabiyotdan xabardor bo‘lmasdan Sharqning o‘zini ham anglash qiyin” [Bertels, 1965: 54].

Tasavvuf adabiyoti faqat diniy-falsafiy qarashlar yig‘indisi bo‘lmasdan, maxsus tayyorgarlik bilan tushunishni talab qiladigan ramz va obrazlarni istifoda etuvchi badiiy tafakkur mahsulidir. Yuqorida aytilgan an‘ana maktabi aynan obrazlar silsilasiga tegishli bo‘lib, Sharq musulmon adabiyotida ruhiy kamolotga eltish yo‘lida ijod etilgan bundayin obrazlar hamisha ahli ma‘ni tarafidan qayta-qayta murojaat qilinadigan timsollar manbayiga aylangan. Xususan, Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Vomiq va Uzro, Asli va Karam, Iskandar Maqduniy, Luqmoni Hakim, Hizr alayhissalom, Rustam, Nasriddin afandi, Shayx San‘on singari obrazlar shular jumlasidandir. Shubhasiz, Shayx San‘on mashhurlik va murojaat qilishda boshqa adabiy qahramonlar bilan ayni maqomni egallab turibdi.

Shayx San‘on turkumidagi asarlarni tadqiq etishdan oldin bu obraz qay tarzda shakllangani, uning adabiy maydonga qay yo‘sinda kirib kelganini o‘rganish muhim.

Asosiy qism

Shayx San‘on manbalarda Shayx San‘on, Shayx Sam‘on, Ibn Saqqo, Abdulrazzoq kabi turli nomlar bilan uchraydi. Bu mavzudagi ilk yirik doston muallifi Farididdin Attor asarida u Shayx San‘on tarzida keladi. Bu mavzuda keyinroq asar bitgan Gulshahriy va Hasan Ziyoyi dostonlarida Abdulrazzoq nomi bilan berilgan:

Go‘rdi jononini Abdurrazzoq,

Ko‘di¹ iymonini Abdurrazzoq [Mostarli Hasan Ziyoyi 2017: 53].

Avliyolar haqida yozilgan tazkiralarda, asosan, bu zot Shayx San‘on deb e‘tirof etiladi. Masalan, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida shunday ma‘lumot berilgan: “Oning buzurgligin hazrat Shayx

¹ Qo‘ydi.

Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” otlig‘ kitobini o‘qug‘on kishi bilur. Ishq va muhabbat bahrining gavhari va shavq-u malomat otashkadasining samandari erkandur va Shayx Nozim (q. s.) aning bobida mundoq debdurki, “O‘z davrida yashagan Shayx San‘onning fazilati haqida har qancha yozsam oz. U kamolga yetgan to‘rt yuzta muridi bilan Haramda ellik yil yashadi.

Bovujud bu biyik marotib ulcha ishq oshubidin va muhabbat lagadko‘bidin Shayx boshig‘a tushubdur, aning abnoyi jinsig‘a yo‘qkim, hech bani odamga tushmaganini har kishi “Mantiq ut-tayr” kitobini o‘qusa, ma‘lum qilur [Navoiy 2001: 425].

Bu mavzu yuzasidan tadqiqotlar olib borgan olim Farhod Isomiddinov Gavharin keltirgan ma‘lumotlarga tayanib aytgan fikrlariga ko‘ra, Shayx San‘on haqidagi ilk ma‘lumotlar Muhammad G‘azzoliy tarafidan yozilgan “Tuhfat ul-muluk”ning 10-bobida keltirilgan. Va unda Shayx San‘on Shayx Abdurrazzoq San‘oniy nomi bilan zikr etilgan: “Abdurrazzoq San‘oniy karomatli kishilardan bo‘lib, nasroniy dinini qabul qilgan. Shayx San‘on hikoyatini G‘azzoliy Attordan ishonarli qilib bergan”. Olimning ta‘kidlashicha, “Abdurrazzoq ibn Hamom San‘oniy mashhur muhaddislardan. 126-hijriy yili tug‘ilib, 212-hijriy yilda vafot etgan va xabarda zikr etilishicha, Rasululloh (s.a.v)dan keyin hech kim unday taniqli va mo‘tabar bo‘lmagan. Hamma uni ko‘rish va suhbatini olish uchun ko‘p ranj-u mashaqqatlar bilan huzuriga kelar edilar. Lekin ayrim roviylar unda ikki kamchilikni ko‘rganlar: birinchisi, umrining oxirlarida ko‘r bo‘lib qoladi va undan xato va sahvlar sodir bo‘la boshlaydi. Qari, jirkanch bo‘lib, Ali ibn Abutolib hamasrlari hamda xulafoyi roshidon haqlariga nojo‘ya so‘zlar aytar edi [Isomiddinov 2001: 18]. Ayni shu ma‘lumot Ahmat Tal‘at Onayning “Eski turk adabiyotida mazmunlar va izohi” kitobida keltiriladi: “Shayxi San‘an yoxud Shayxi San‘oniy (Abubakr Abdurrazzoq bin Humam bin Nofiy) olim va muhaddislarning mashhurlaridan bo‘lib, San‘alidir. Hijriy 126-yili tug‘ilib, 211-yilda vafot etgan” [Ahmet Talat Onay 2000: 427]. Bu ma‘lumotlar Islom ensiklopediyasida ham keltirilgan. Unda olimning muhaddis sifatidagi ilmiy faoliyati keng yoritiladi-yu, ammo ishqiy mojaro borasida biror fikr keltirilmaydi: “Abdurrazzoq As-San‘oni San‘ada tug‘ilgan. Ilk tahsilini oila davrasida oladi. O‘n sakkiz yoshlarida ekan, Yamanga kelgan Ibn Jurayj bilan ko‘rishib, undan hadis o‘rgandi. Yigirma yoshlarida ilmiy sayohatlarga chiqdi. Hijoz, Shom va Iroq kabi ilm markazlariga qilgan sayohatlarida Ma‘mur bin Rashid, Sufyon as-Savri, Sufyon bin Uayyana, Malik bin Anas va davrining boshqa buyuk olimlaridan hadis o‘rgandi...” [DIA: 298–299]. Ma‘lumot so‘ngida esa olimning Shia mazhabiga yaqinlasha boshlaganini hamda hazrati Aliga kuchli muhabbat ko‘rsatib, Muoviya singari muxolif taraf kishilariga nisbatan o‘z nafratini ochiq ko‘rsatgani bayon etilgan.

Yusuf Babur o‘zining “Shayx San‘on qissasiga doir” maqolasida Ahmat Talat Onayga tayanadi: “Shayx San‘on yoxud Shayxi San‘oniy o‘laroq tanilgan Abubakr Abdurrazzoq bin Humom bin Nafi ham olim va muhaddislarning mashhurlaridan bo‘lib, San‘ol^{ik}dir... Hijriy 126 (743)-yili tug‘ilib, 211(826)-yilda vafot etgan. Tariqat arbobi tarafidan nafs bilan mujodala etganini ifodalovchi bir qissa ijod etilgan [Yusuf Babur 2013: 511]. Yusuf Babur ayni ma‘lumotni keltirarkan, maqolaning ilmiy

ko'rsatkichlar qismida qo'shimcha izoh ham berib o'tadi: "Shayx San'on haqida Ahmat Talat Onay manba keltirmasdan quyida berib o'tgan ma'lumotimizni ayni shaklda keltirib o'tadi" [Yusuf Babur 2013 : 511] – deb yozar ekan yuqorida Turkiya "Islom ensiklopediyasi"dan keltirib o'tilgan Abubakr Abdurrazzoq bin Humom bin Nafi haqidagi ma'lumotni beradi.

Shayx San'on borasidagi yuqorida aytilgan fikrlarni boshqa olimlarning ishlarida ham ko'rish mumkin. Ammo ular keltirilgan ma'lumotlar va zikr etilgan manbalarga suyang'an, yoki ulardan farqli ravishda birorta qo'shimcha dalil keltirishmagan. Shuning uchun Shayx San'on shaxsiyati haqida umumiy manzarini yaratish uchun ushbu dalillarga suyanamiz.

Avvalo, aytish kerakki, Shayx San'on obrazi atrofida uch xil nomdagi inson haqida mavjud ma'lumotlar birlashtirilib kelinmoqda. Ular ayri-ayrancha ko'rilsa, quyidagicha ko'rinish o'rta qib qibadi:

1. Faqat oshiqliqi aytilayotgan Shayx Abdurrazzoq San'oniy.
2. Ulamoligi e'tirof etilayotgan Abu Bakr Abdurrazzoq bin Hammom bin Nafi As-San'oniy.
3. G'avsnining duoyibadi bilan nasroniy qizga oshiq bo'lib, dindand chiqqan Ibn Saqqo.

Oshiq Shayx San'onning kim ekanligi ma'lum. Zotan, hazrat Navoiy o'zlarining "Nasoyim ul-muhabbat" asarda u kishining ishq mojarolari naqadar mashhur ekanligini bayon etib o'tadi [Navoiy 200: 425 – 426]. Ammo Ulamo Abdurrazzoq bin Hammom bin Nofiyning oshiq San'on bilan bitta inson ekanligi bir oz shubhali. Bu masalani turk olimi Yusuf Bobur ham haqli ravishda shubha ostiga oladi. Jumladan, olim o'zining "Shayx San'on qissasiga doir" maqolasida shunday deydi: "Mavzu borasida eng diqqatni tortadigan nuqta Hazrati Usmondan rivoyat etilgan bir hadisning² [Rudoniy 1995: 245] bu qissaga manba bo'lish ehtimolining yuqori ekanligidir. Hadisda bahs etilganlar bilan Shayx San'on qissasining sharob orqali yetarlicha o'xshash bo'lishi, bu ehtimolga yanada e'tiborli bo'lish kerakligini anglatadi. Agar qissaning manbasi hadis ekanligini e'tirof etsak, qissada ifoda etilgan hodisalar Shayx San'on nomi bilan tanilgan Abubakr Abdurrazzoq bin Hammom³ bin Nofiyning boshidan o'tgan voqealar emasdir. Zero, Hazrati Usmon bu hadisni rivoyat etganida Shayx Abdurrazzoq, ya'ni Shayx San'on hali dunyoga kelmagan edi. San'o shahridan yetishib chiqqan har qanday olimga San'on nisbasi

² Ayni o'rinda olim hadisni ham keltiradi: "Shayx San'on hikoyasi taxminan Fariduddin Attor yoki boshqa bir muallif tarafidan hazrati Payg'ambarning shu hadisidan foydalangan holda ba'zi asarlarda nazm etilmish va "Mantiq ut-tayr"dan joy olgan degan qarashdamin: "Hazrati Usmon (ra)dan rivoyat qilinadi: "Xamirdan uzoq turing. Chunki u barcha yomonliklarning onasidir. Sizdan avvalgi millatlarda o'zini ibodatga bag'ishlagan bir odam bor edi. Bir ayol unga oshiq bo'ldi. Unga joriyasini jo'natib, "Seni falon ayol shahodat uchun chaqirtirmoqda" dedirdi. Odam (so'zda) shohid bo'lish uchun joriya bilan jo'nadi va u eshikdan kirishi bilan orqasidan qulfladilar. Oxirida go'zal bir ayolning yoniga bordi. Ayolning yonida bir bola hamda bir idishda sharob bor edi. Ayol unga: "Seni shohidlik uchun chaqirmadim, men bilan yotasan deb chaqirdim" – dedi. U kishi esa eng yengilini afzal bilgan holda "Unda bir qadah araq ber", – dedi. Araq berdi, ichdi: "Yana ber" – dedi va yana berishdi, uni ham ichdi. Alal-oqibat sarhush bo'ldi. Ayol bilan munosabatga kirishdi, so'ngra u yerdagi bolani o'ldirdi. Shuning uchun ham sharobdan shiddat bilan qoching. Allohga qasamki, iymon va sharob ichish bir nuqtada birlasha olmas, hech qancha vaqt o'tmasdan biri ikkinchisini uzoqlashtirur.

³ Ismning ayni qismi Ahmat Talat Onayda Humom tarzida, Turkiya Islom ensiklopediyasida esa Hammom tarzida berilgan. Har ikkisi istifoda etilayotgan bo'lsa-da, ular aslida bitta ism.

berilishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, she'riyatdagi Shayx San'onning bu shaharda ulg'aygan boshqa bir olim ekanligini tushunish mumkin [Yusuf Babur 2013: 515].

Avvalo, turk olimi Ahmat Talat Onayning XX asr boshida nashr etilgan "Eski turk adabiyotida mazmunlar va izohi" kitobida kelgan ma'lumotlarga diqqat qaratmoq kerak. Birinchi o'rinda, olim bu ma'lumotlarni berishda biror manbaga suyanmagan. Avvaliga, balki, XX asr boshlaridagi kitobatchilik tasnifiga ko'ra hali manbani berish odati shakllanmagandir, degan andisha bilan boshqa kitob va maqolalarni kuzatdik va ulardagi murojaatlarda manba uning sahifasi ham keltirilganiga guvoh bo'ldik.

Ikkinchidan, ba'zi ma'lumotlar vaqt nuqtayi nazaridan uyg'un emas. Ahmat Talat Onay Shayx San'onning tug'ilishi va vafoti sanasini hijriy 126 – 211-yillar (milodiy 743/744 – 828/829-yillar) deb ko'rsatar ekan, maqola so'ngida "...muridlaridan Abdulqodir Giyloniy uni izlab topib, ko'rguliklariga yechim topgan ekan. Bir oz o'tib Shayx o'ziga kelgan ekan" [Ahmet Talat Onay 2000: 427] deya XI asr so'ngida (1078-yil) tug'ilgan Abdulqodir Giyloniy bilan ustoz-shogird sifatida ko'rsatadi. Bu esa noaniqlikni o'rta qariy chiqarmoqda, ayni paytda maqolaning manbasiga bo'lgan ishonchni susaytiradi.

Olim shayx San'on va oshiq shayx San'onni bir inson deb hisoblash Gavharinning ilmiy izlanishlarida ham ko'zga tashlanadi. Xususan, Gavharin "Mantiq ut-tuyur"ning tanqidiy matni avvalida ilmiy izlanishlar xususida to'xtab, "Abdurrazzoq ibn Hamom San'oni mashhur muhaddislardandir. 126-hijriy yilda tug'ilib, 212-yili vafot etgan" [Gavharin 1986: 13] deydi. Va fikrlarini davom ettirib, "... qari, jirkanch bo'lib, Ali ibn Abu Tolib hamasrlari hamda xulafoyi roshidin haqlariga nojo'ya so'zlar aytar edi" deydi. "Turkiya Islom ensiklopediyasi" Abu Abubakr Abdurrazzoq bin Humom bin Nofiy borasida keltirilgan ma'lumotni ayni shaklda taqdim etadi. Ammo ensiklopediyada u zotning ishqiy mojarolari haqida biror fikr bildirilmagan. Zotan, muhaddis olim Shayx San'on borasida ma'lumot beruvchi manbalar ushbu hodisalarni keltirmagan. Bu shuni anglatadiki, ishq balosi boshiga tushgan Shayx va muhaddis San'oniylarning bir inson bo'lishi ehtimoli ancha yiroq. Zotan, hadis ilmi ulamolari hadisning roviysi, uning shaxsiyati va hayot yo'liga alohida e'tibor qaratadilar. Modomiki, ulamo Shayx San'onda o'zga dinga o'tish va bir qizga oshiq bo'lib, islomga zid turfa ishlarni bajarishi kuzatilgan ekan, bular shubhasiz ahli ulamo nazaridan panada qolmas edi. Ikki Shayx San'on masalasini tahlil qilgan Sadik Yazar ham "Ahmat Talay Onay Shayx San'onning 211/826-yili vafot etgan Abu Bakr Abdurrazzoq bin Hammom bin Nofiy As-San'oni al-Himayri ekanligini aytar ekan, Islom ensiklopediyasida bu zotning Shayx San'on bilan bo'lgan aloqasi haqida birorta ma'lumot keltirmaydi" [Sadiq Yazar 2010: 1574], – deya ikkisining bir inson ekanligiga shubha bilan qaraydi.

Ikkinchi masala Shayx San'on va Ibn Saqqoning bir yoki boshqa-boshqa inson bo'lishi haqidagi qarashlardir. Umumlashtirib aytganda, bu tur izlanishlar ham ikki xil: ba'zi tadqiqotlarda dalil yoki qiyoslarga suyanilsa, boshqalari biror ilmiy manbaga tayanilmasdan, havola berilmasdan to'g'ridan-to'g'ri ularning ikkalasni bir shaxs sifatida ko'rsatadilar Xususan, Abdalbaki Gulpinarli o'zining "Yunus Emro va

tasavvuf” kitobida “Nafahot ul-uns” va “Nasoyim ul-muhabbat”da Shayx Hammod Dabbos bobida aytilgan Ibn Saqqo va G’avs ul-a’zamning ziyorati [Navoiy 2001: 369] borasida fikr bildirib, “Ajabo, Shayx San’on qissasi mana shu voqeadan dunyoga keldimikan?” [Abdulgali Gulpinarli 1961:151] deya o’rtaga savol tashlaydi. Ammo bu masalaga kirish yo’lini “G’iyos ul-lug’at”da ko’ramiz. Jumladan, “San’on buyuk shaxsning nomidirki, 700 muridga ega edi va Shayx Fariddin Attor ham uning muridlaridan. Aytishlaricha, G’avs ul-azamning qarg’ishidan so’ng tarso qiziga oshiq bo’lib, islom dinini tark etadi. G’aybdan madad bo’lgandan keyin islomga qaytadi” [G’iyos ul-lug’ot 1987:14]. Aslida, “Nafahot ul-uns” va “Nasoyim ul-muhabbat” asarlarida keltirilgan o’sha mashhur hikoya va mazkur lug’atdagi ma’lumot bir-biriga ishora qilmoqda. Biroq “Nasoyim ul-muhabbat”da Shayx Hammod Dabbos bobining so’nggida yanada muhim bir xabar ham keladiki, u bizga vaziyatni ochiqroq ko’rsatadi: “... va Shayx Abdulqodir bir kun va’z aytur erdi. Omma mashoyix aning majlisida edilar, misli Shayx Ali Haytiy va Shayx Baqo bin Botu va Shayx Abu Sa’d Qilaviy va Shayx Abunnajib Suhravardiy va Shayx Jogir va Shayx Qazib ul-bon Mavsiliy va Shayx Abus-Su’ud va g’ayruhum kibori mashoyixdin. Shayx so’z asnosida hamul so’zni dediki, (shu oyoqlarim har bir Alloh valiysining bo’ynidadir). Va bu hozir mashoyix barcha bo’yunlarin aning ayog’iga past qildilar. Va “Nafahot”da mundoqdurki, hech valiy qolmadiki, bu so’zga bo’yun sunmamush bo’lg’ay. Bir vali Ajamda ibo qildi, holi andin mutavoriy bo’ldi” [Navoiy 2011: 371].

Birgina shu parchadan muayyan xulosalarga kelish mumkin. Avvalo, badduo ziyorat qilingan valiy tarafidan qilinmaydi, balki Alloh Abdulqodir Giloniyga bergan maqomni tan olmaganlikdan kelib chiqadi. Agar bunday bo’lmaganda edi, ushbu ikkinchi hikoyat keltirilmasdi. Ikkinchidan, hikoya boshidagi G’avsning aytgani badduo emas, aksincha, karomat edi. Uchinchidan, G’avs ul-a’zam ziyorati va “shu oyoqlarim har bir Alloh valiysining bo’ynidadir” hukmi keltirilgan hikoyat bir inson bilan bog’liq. Yo’qsa, ikkisi bir o’rinda keltirilmas edi. Inchunun, har ikkisida ham bir kishining dindan chiqib razil bo’lganligiga ishora mavjud. To’rtinchidan, va eng asosiysi, har ikki G’avsning ham Ibn Saqqo bilan bo’lgan muomalasi “G’iyos ul-lug’ot”dagi Shayx San’on hodisasiga to’la muvofiq keladi. Bu esa ikki ismning bir insonni ifodalayotganligiga dalolatdir.

Endi mazkur mavzuga asos bo’lgan zotning badiiy adabiyotga kirishi va obraz sifatida shaklanishi bilan bog’liq jihatlariga e’tibor qaratamiz.

Sharq madaniyati azaldan o’z jozibasi va kuchli hissiyotni qamrab oluvchi nodir asarlarga ega ekanligi bilan ajralib turgan. Undagi turfa syujet liniyalarini chambarchas bog’lab turuvchi, ayni paytda, betakror bo’lgan qissa va hikoyalarning o’ziyoq Sharq dunyosining qiyofasini ko’rsatib beruvchi elementlardan biri sanaladi. Xususan, “Panchatantra” “Kalila va Dimna”, “Ming bir kecha”, Iskandar Maqduniy turkum asarlari, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Zarbulmasal” singari sarguzasht asarlari hamisha mashhur bo’lgan. Qiziqarli tomoni shundaki, Sharq ijodkori bir hikoyani qayta-qayta istifoda etar ekan, har bir asarda o’ziga xos novatorlik o’rtaga chiqadi. Masalan, “Layli va Majnun” maynodida nechta ijodkor ot surgan bo’lsa, har biri o’ziga xos badiiy topilmalarning sohibidir. Mana shu tarzda bir hikoyatning ko’plab

ijodkorlari maydonga chiqqanida, ular o'rtasida ba'zan shu turkum asarni ilk bor ijod etgan muallif masalasi ko'tariladi. Xuddi Shayx San'on obrazini adabiyot olamiga olib kirgan, uni o'quvchiga tanitgan ilk ijodkor kim ekanligi xususida bo'lgani kabi.

Aslida, biz Shayx San'on obrazini badiiy adabiyotda ikki yo'l bilan namoyon bo'lishini kuzatamiz:

1. Turfa she'r va dostonlarda talmeh sifatida keltirilishi.
2. Shayx San'on haqida mufassal yozilgan hikoya yoxud dostonlar.

Shayx San'on, uning asosida shakllangan obraz Islomning dastlabki davrida ma'lumligi haqida ba'zi olimlarning e'tiroflari mavjud. Zotan, har bir obraz o'zining shakllanish bosqichini xalq orasida shuhrat topish bilan boshlaydi. Y. Salimov aytgani kabi "Shayx San'on haqidagi afsonalar Sharq xalqlari orasida ancha qadimdan ma'lum va mashhur. U haqdagi turli afsonalar har turli xalq kitoblari va majmualari tarkibidan o'rin olgan" [Salimov 1964: 21]. Yuqorida aytilgani kabi Shayx San'on talmeh o'laroq g'azallarda murojaat etilayotgan eng faol obrazlardan sanaladi. Masalan:

Gar muridi rohi ashki fikri badnomi mekun,

Shayxi San'on xirqai rahni xonayi hammor dasht [Ahmet Talat Onay 2000: 427].

Mazmuni: agar ishq yo'lining muridi bo'lsang, malomatlardan qo'rqma, zotan Shayx San'on mayxonachiga bir qadah sharob uchun o'z xirqasini berib yubordi.

Ushbu qahramonning bu darajada mashhur ekanligi, tabiiyki, ishq mojarolari bilan bog'liq. Odatda, bu turdagi qahramonlar qissa va dostonlarga ko'chishdan oldin muayyan vaqt mobaynida xalq tilida: afsona va rivoyatlarda yashaydi. Keyinchalik esa, misralarga ko'chadi va alaloqibat yirik asarlarning qahramoni bo'lib qarshimizga chiqadi. Tadqiqotchi F. Isomiddinov ayni shu jihatga urg'u berarkan: "Ushbu qissa xalq orasida mashhur. Sharq shoirlari ijodida Shayx San'onga bag'ishlab aytilgan she'r, bayt va dostonlarni ko'plab keltirish mumkin" – deydi [Isomiddinov 2001: 15]

Shayx San'on turkumidagi asarlarning yana bir hayot bosqichi, bu – epik turga ko'chishidir. Ya'ni Shayx haqidagi tugal asarlarning yaratilish davridir. Ushbu masala yuzasidan olimlar turli fikrlarni aytgan bo'lsalar-da, agar umumiy rakurs ostida ko'rilsa, qarashlarning aksariyati bir-biridan ko'p farq qilmaydi. Chunonchi, barcha xulosalar Shayx San'on hikoyasini yozma adabiyotga olib kirgan ilk ijodkor Imom G'azzoliy va qissa shuhratini dunyoga yoygan shoir Attor ekanligini aytib o'tishadi. Ba'zan bir-biridan farq qiladigan fikrlarni ham uchratish mumkin. "Gavharinning yozishicha, Shayx San'on hikoyatini G'azzoliy va Attor ishonarli qilib bergan" [Isomiddinov 2001: 17] Bu o'rinda F. Isomiddinov va Gavharin ikki muallifning bu qissa borasidagi ijodkorligini ta'kidlaydi. G'azzoliyning ro'yxatga kiritishning o'ziyoq qissani dastlab u boshlab berganiga ishoradir. Olim V. Rahmonov "Lison ut-tayr"ga yozgan so'zboshida, jumladan, shunday deydi: "Shayx San'on (Ibn Saqqo) IX–XII asrlarda yashagan tarixiy shaxs bo'lib, uning otashin sevgisi haqidagi qissa Sharq mamlakatlarida mashhurdir. ...Badiiy adabiyotda bu qissani birinchi bo'lib

Farididdin Attor 1221-yili “Mantiq ut-tayr” asarida nazmda bergan” [Navoiy 1991:322]. Ayni fikrni turkiyalik mashhur olim Ahmet Talat Onay ham yozgan. U o‘zining “Eski turk adabiyotida mazmunlar va izohi” kitobida “Bu qissa haqida Shayx Attor “Mantiq ut-tayr”da bir hikoya yozadi” [Ahmet Talat Onay, 427] – deb, G‘azzoliy haqida biror ma’lumot keltirmaydi. Ushbu fikrni Muberra Go‘rgendereli ham qo‘llab-quvvatlaydi. U Hasan Ziyoyining “Shayx San‘on masnaviysi” kitobiga yozgan so‘zboshida lo‘nda qilib shunday deydi: “Shayx San‘on hikoyasi ilk bora buyuk eronlik mutasavvif shoir Fariduddin Attor (1119–1193) tomonidan yozilgan “Mantiq ut-tayr” masnaviysidagi hikoyalardan biri sifatida qarshimizga chiqmoqda” [Mostarli Hasan Ziyoyi 2017: 3] Ammo Ahmed Gemi masalaga butunlay boshqa rakursdan yondashadi. Olim o‘zining “Farididdin Attorning ta’sirida paydo bo‘lgan Gulshahri va Faqiya Teyronning Shayx San‘on qissalarining o‘zaro qiyosi” maqolasida qissa tarixi ancha qadim zamonlarga borib taqalishini aytadi: “Eskidan beri xalq orasida mashhur bo‘lgan Shayx San‘on hikoyasining manshayi haqida aniq bir ma’lumot mavjud emas. Avvalo, bu hikoyaning ilk bora III asrda Abbosiylar davrida paydo bo‘lgan va keyinchalik Abu Homid G‘azzoliy (505/1111)ning “Tuhfat ul-muluk” nomli asarida nasr o‘laroq yozilgani aytilmoqda” [Ahmet Gemi 2016: 108] Ushbu ma’lumot Shayx San‘on qissasining manshasi qaysi davr va qaysi manbaga borib taqalishiga diqqat qaratadi. Va yana bir o‘rinda “Shayx San‘on hikoyasi, fors adabiyotida muhim o‘ringa ega. Bu hikoya fors jamiyati va adiblariga ko‘ra, ancha eskidan ma’lum bo‘lgan. Asar ilk bor mashhur adib va so‘fiy shoir Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” nomli asarining to‘rtinchi bo‘limidan joy olgan bo‘lib, 406 yoki 409 baytdan iborat” [Ahmet Gemi 2016: 109] – deb birinchilik maqomini Attorga o‘tkazadi. Yusuf Babur ikki ismni bir qatorda sanaydi: “G‘azzoliyning “Tuhfat ul-muluk” va Attorning “Mantiq ut-tayr” asarlarida bu qissa mufasssal bayon etilgan” [Yusuf Babur 2013: 511] Ushbu fikr olimning G‘azzoliy ibtidochi ekanligini aytib o‘tayotganligini anglatadi. Biroq Shayx San‘on borasida, xususan, “Tarjimoni noma’lum Shayx San‘on qissasi” maqolasi muallifi jiddiy fikrni o‘rtaga tashlaydi: “Real voqelikmi yoxud uydurma ekanligi aniq bo‘lmagan bu hikoya Iskandar Palaning aytishiga qaraganda, ilk bor G‘azzoliyning “Tuhfat ul-muluk” nomli asariga kiritilgan. Ammo shuncha qilingan tadqiqotlar natijasida bu ma’lumotni aniqlashtirilmadik. Hikoya Eron shoiri Fariduddin Attor ijodida o‘zining asil shuhratini qozondi” [Sadik Yazar 2010: 1575]. Taki Purmandaryan esa yanada aniqroq bo‘lgan ma’lumotni ulashadi: “Shayx San‘on hikoyasi “Mantiq ut-tayr”ning eng uzun hikoyasidir va manbasi G‘azzoliyning “Tuhfat ul-muluk” asarida keltirilgan qisqa bir hikoyadan olingan” [Taki Purnamdaryan 2023: 209] Olimning bundayin qat’iy fikrni o‘rtaga tashlashiga o‘rinli sabab bor. Uning aytishicha, “Marhum Furuzanfarning⁴ xabar berishicha, u Ayasofya kutubxonasida bir majmuada G‘azzoliyning “Tuhfat ul-muluk” asarida bu hikoyani ko‘rgan va Attorning Shayx San‘on manzumasining asil manbasi hisoblangan hikoyaning syujeti ham aynan mana shundaydir. Chunki Abdurrazzoq San‘oniy haqidagi “Tuhfat ul-muluk”da keltirilgan hikoyaning – Attorning tasavvufiy qarashlari, zavq va uslubining asarga

⁴ Shayx San‘on borasida tadqiqot olib borgan eronlik olim.

qo'shgan ma'nolari va shoirona jihatlardan tashqari, shaxsiyat, xarakter va syujet tomondan Mantiq ut-tayr'dagi Shayx San'on hikoyasidan umuman farq qilmaydi" [Taqi Purnomdoryon 2023: 213]. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagicha xulosa berish mumkin.

Xulosa

Shayx San'on qissasining ibtidosi yoxud kimning bu asarni ijod etgani qissa mohiyatini tadqiq etishda ko'p ham ahamiyatli emas. Ammo ilm ahli bu borada ham fikrlarini o'rta tashlagan ekanlar, haqli ravishda bu masalaga ham nazar tashlamoq ustozlar izidan yurmoqni qasd etganimizdan dalolatdir.

Keltirilgan tadqiqotlar Shayx San'on qissasini ilk ijod etgan shaxs borasida ikki guruhga bo'linadilar. Ba'zilar bu ish avvalida G'azzoliy turibdi, desalar, boshqalar esa Attorni e'tirof etadilar.

Yusuf Babur bergan ma'lumotda ikkisini ham ta'kidlash o'rta chiqadi. Lekin Attorning Shayx San'on qissasini barchamiz bilganimiz holda, G'azzoliyning qissasi noma'lumligicha qoldi.

Ahmet Gemi ham asarni dastlab Abu Homid G'azzoliy yozgan, deya e'tirof etarkan, buni o'z tadqiqi bilan emas, balki boshqa olimlarning ifodasiga ko'ra aytayotganiga ishora qiladi. Yuqorida aytganimiz kabi bu ma'lumotlar biroz shubhali bo'lib, Sadiq Yazar ham tadqiqotlar natijasida bu ma'lumotni aniqlashtira olmadik, deya fikrimizni qo'llab-quvvatlamogda. Bu borada Mubarra Go'rgandarali ham "Shayx San'on" qissasining ilk ijodkori Attor, deya aytib o'tadi. Yuqoridagi olimlardan farqli ravishda Taqi Purnomdoryon "Tuhfat ul-muluk"ning saqlanish joyi, undagi "Shayx San'on" qissasining Attor versiyasi bilan bir xil ekanligini aytsa-da, bu ma'lumot ham olimning tadqiqoti natijasi emas, aksincha Furuzanfar ismli boshqa bir olimning bergan xabariga suyanganligi faktning ishonarlilik darajasini biroz tushiradi. Zotan, Sadiq Yazar bergan xabarga ko'ra, Furuzanfar aytib o'tgan manzilda qissaning G'azzoliy qalamiga mansub varianti topilmagan.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, avvalo, Shayx San'on haqiqatdan ham yashab o'tgan real shaxsdir. U san'onlik bo'lgan. Ismi esa Abdurrazzoqdir. Ammo Ulamo Abdurrazzoq San'oni (hijriy 126-yili dunyoga kelgan) bilan bir inson emas. Aksincha, milodiy V asrda yashagan va haramda 400 muridga murshidlik qilgan zot. Shayx San'on o'z zamonasining valiylaridan, ma'rifatli kishilaridan bo'lgan. Umrining so'nggi paytlarida Rumga safar etadi va u yerda tarso qiziga oshiq bo'lib dindand chiqadi. Ma'lum muddat o'tib, tavba-tazarru qilib yana Islomga kiradi.

Islom tasavvuf adabiyotida ahli ma'ni tarafidan ijod etilgan har bir qahramon kechinmasi real voqealik sanalmaydi, balki undan ramziy tilni "yechintirib" ko'rilganda o'rta chiqadigan manzara reallikka yaqin bo'ladi. Shu ma'noda Shayx San'on shaxsiyatiga oid bo'lgan-bo'lmagan iker-chikir va shubhali sanalgan har bir detalning manshasiga yetishga harakat qilish va undan qissa mazmunini tahlil qilishda istifoda etishga urinish foydasiz. Eng muhim nuqta qahramon shaxsiyatining umumiy manzarasini chizish va qissa tahlilini olib borishda sof adabiy mezonlarga suyangan holda asarning ma'no olamiga kirib borishni muddao sifatida

belgilashdir. Ushbu obrazning badiiy adabiyotga kirib kelishi borasida aytish kerakki, Shayx San'on turkum qissalarining ilk ijodkori o'laroq Fariddin Attorni bilishimiz mantiqan to'g'ri. Zero, keltirilgan faktlarning yarmi Attorni e'tirof etsa, qolgani – G'azzoliy boshlab bergan deya ma'lumot beruvchi – boshqa tadqiqotlar esa aniq faktlarga suyanilmagan. Toki G'azzoliyning nomi zikr etilgan asari ilm ahliga oshkor bo'lib, aniqlashtirilmaguncha, Attorni ayni masalada bu mavzuni boshlab beruvchi deya hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

Abdülbaki Gülpınarlı. Yunus Emre ve tasavvuf. — İstanbul: Remzi Kitabevi, 1961. — 705 s.

Abdurrahman Cami. Nefehâtü'l-üns min hadarâti'l-kuds / Tercüme ve şerh: Lami Çelebi. — İstanbul: Marifet Yayınları, 1998. — 888 s.

Babür Y. About Sheikh San'ân parable — Şeyh-i San'ân kıssasına dair // Turkish Studies. International Periodical for the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic. — 2013. — Volume 8, Issue 13 (Fall). — S. 509–516.

DİA. Abdürrezzak es-San'ânî maddesi. — 1-cilt. — İstanbul: Türkiye Diyanet Vakfı, 1988. — 560 s.

Gavharin Sadiq. Mantiku't-tayr. Tanqidiy nashr. — Tehron, 1986. — 446 s.

Gemi A. Ferîdüddîn Attâr'ın etkisinde gelişen Gülşehrî ve Feqiye Teyran'ın Şeyh San'an hikâyelerinin mukayesesi // Uluslararası Sosyal Araştırmalar Dergisi (The Journal of International Social Research). — 2016. — Cilt 9, Sayı 45. — S. 107–115.

Mostarlı Hasan Ziya'î. Şeyh-i San'ân mesnevisi / Haz.: Müberra Gürgendereli. — Ankara: T.C. Kültür ve Turizm Bakanlığı Kütüphaneler ve Yayımlar Genel Müdürlüğü, 2017. — 127 s.

Onay A. T. Eski Türk edebiyatında mazmunlar ve izahı. — 4. baskı. — Ankara: Akçağ Yayınları, 2000. — 573 s.

Purnamdaryan T. Şeyh San'ân'ın başka bir yorumu: itibarın zorlu geçidini aşma hikâyesi / Türkçeye çeviren Ece Ceylan // Doğu Araştırmaları. A Journal of Oriental Studies. — 2023. — № 28 (2). — S. 208–233.

Rûdânî. Büyük hadis külliyyatı: Cem'ü'l-fevâid / Tercüme: Naim Erdoğan. — 2 cilt. — İstanbul: İz Yayıncılık, 2011. — 245 s.

Yazar S. Mütercimi belirsiz bir Şeyh-i San'ân mesnevisi // Turkish Studies. International Periodical for the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic. — 2010. — Volume 5, Issue 4 (Fall). — S. 1573–1631.

Алишер Навоий. Лисон ут-тайр / Нашрга тайёрловчи: Ш. Эшонхўжаев; изоҳ ва луғатлар муаллифи: В. Раҳмонов. — Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. — 325 б.

- Алишер Навоий. Насойим ул-мухаббат // Мукаммал асарлар тўплами: 20 томлик. — 17-том. — Тошкент: Фан, 2001. — 534 б.
- Бертельс Е. Э. Суфизм и суфийская литература. — Москва: Наука, 1965. — 528 с.
- Гиёс ул-луғот. — Қисми 2. — Душанбе: Ирфон, 1987. — 480 с.
- Исомиддинов Ф. Шайх Санъон қиссаларининг қиёсий таҳлили: филол. фан. номз. дисс. — Тошкент, 2001. — 138 б.
- Салимов Ю. Становление жанра сказочной прозы в персидско-таджикской литературе: автореф. дис. ... канд. филол. наук. — Москва, 1964. — 315 с.

References

- Abdulkali Gulpinarli, A. (1961). *Yunus Emre ve tasavvuf* (Yunus Emre and Sufism), Istanbul, Remzi Kitabevi. (In Tur.)
- Abdurrahman Cami. (1998). *Nefehatu'l-uns min hadarati'l-kuds* (Breaths of intimacy from the sacred presence), Istanbul, Marifet Yayinlari. (In Tur.)
- Gemi, A. (2016). *Uluslararası Sosyal Arastirmalar Dergisi*, vol. 9 (45), 107–115. (In Tur.)
- Onay, A. T. (2000). *Eski Turk edebiyatında mazmunlar ve izahi* (Mazmuns and their interpretation in old Turkish literature), Ankara, Akcag Yayinlari. (In Tur.)
- Navoi, A. (2001). *Nasoiyim ul-muhabbat* (Breezes of love), Tashkent, Fan. (In Uzb.)
- DIA. (1988). *Abdurrezzak es-Sanani* (Abdurrazzaq al-San'ani), Istanbul, Turkiye Diyanet Vakfi. (In Tur.)
- Gavharin, S. (1986). *Mantiku't-tayr* (The Conference of the Birds), Tehran, n.p. (In Per.)
- Mostarli Hasan Ziya'i. (2017). *Sheyh-i San'an mesnevisi* (Masnavi of Sheikh San'an), Ankara, T.C. Kultur ve Turizm Bakanligi Kutuphaneler ve Yayinlar Genel Mudurlugu. (In Tur.)
- Rudani. (2011). *Buyuk hadis kulliyati Cem'u'l-fevaid* (Great hadith collection: Jam' al-fawa'id), Istanbul, Iz Yayıncılık. (In Tur.)
- Yazar, S. (2010). *Turkish Studies*, vol. 5 (4), 1573–1631. (In Tur.)
- Purnamdaryan, T. (2023). *Dogu Arastirmalari*, No. 28 (2), 208–233. (In Tur.)
- Babur, Y. (2013). *Turkish Studies*, vol. 8 (13), 509–516. (In Eng.)
- Navoi, A. (1991). *Lison ut-tayr* (Language of the Birds), Tashkent, G. Gulom nomidagi Adabiyot va San'at Nashriyoti. (In Uzb.)
- Bertel's, E. E. (1965). *Sufizm i sufiiskaia literatura* (Sufism and Sufi literature), Moscow, Nauka. (In Rus.)

Ghiyas ul-lughot. (1987). *Ghiyas ul-lughot*, part 2, Dushanbe, Irfon. (In Per.)

Isomidinov, F. (2001). *Shaykh Sanyon qissalarining qiyosiy tahlili* (Comparative analysis of the Sheikh San'an stories), candidate's thesis, Tashkent. (In Uzb.)

Salimov, Yu. (1964). *Stanovlenie zhanra skazochnoi prozy v persidsko-tadzhikskoi literature* (Formation of the genre of fairy-tale prose in Persian-Tajik literature), extended abstract of candidate's thesis, Moscow. (In Rus.)